

# Uzbekistan Airways xodimlari o'rtasida fototanolov

2025 29 Avgust

Uzbekistan Airways O'zbekiston aviatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi ko'magida xodimlar o'rtasida "Men - O'zbekistonlikman!" fototanolovini o'tkazdi.



Tadbir O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 34 yilligi va Havo floti kuniga bag'ishlandi. Tanlov ikki bosqichda o'tkazildi va aviakompaniya xodimlarida katta qiziqish uyg'otdi. Ular o'z ishlarida O'zbekiston go'zalligiga shaxsiy nigohlarini aks ettirib, fotosuratlar orqali Vatanga bo'lgan muhabbatlarini ifodalashdi.



Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra, g'oliblar aniqlandi: Turizm bo'limi boshlig'i A. Dosanova, Vakillar bilan ishlash bo'limi mutaxassisi Sh. Mo'minov, Uchuvchilar tarkibini hisobga olish guruhi mutaxassisi V. Tillabayeva, O'zaro hisob-kitoblarni yuritish bo'limi buxgalteri K. Izmailbayeva va Uzbekistan Airways Technics hujjat aylanishi bo'limi tarjimoni F. Hamroyeva. Ularning suratlari Vatan va aviakompaniyaning barcha xodimlarini birlashtirgan kasb bilan samimiy faxrlanishning yorqin ifodasi bo'ldi.